

**BOLALAR PUBLITSISTIKASI RIVOJIDA SAFAR BARNOYEVNING
O‘RNI**

Hamida Nusratova Cho‘liboyevna,
Kimyo xalqaro universtiteti dotsenti, PhD
Tel: 90-718 29 23

***Annotatsiya:** maqolada o‘zbek bolalar publitsistikasi nazariyasi, uning rivojiga hissa qo‘shgan taniqli publitsist, shoir, nosir Safar Barnoyev ijodi xaqida ma‘lumot berilgan. Ayniqsa, uning publitsistik asarlari mavzulashtrib, xarakter va janriga ko‘ra tasnif kilinganligi haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** publitsistika, ocherk, esse, badiha, konflikt, kompozitsiya, adabiy janr, ilmiy-ommabop matn.*

Bolalar publitsistikasining eng muhim xususiyatlaridan biri ijtimoiy hayotdagi dolzarb muammolarni bolalarning dunyoqarashiga mos tarzda yetkazib berishdir. Shuning uchun bolalar publitsisti bo‘lish oson ish emas. Uning ikki muhim qirradi bor: birinchidan, bolalarda ijtimoiy fikr uyg‘ota olish, ikkinchidan, shu masalani bolalarbop tarzda ularga yetkaza bilish. O‘zbek bolalar adabiyotida ana shunday murakkab vazifani maromiga yetkazib uddalagan bolalar publitsistlari orasida Safar Barnoyevning ham alohida o‘rni bor. Uning publitsistik asarlarida o‘zigagina xos soddalik, kuyunchaklik, bolalarbop qilib yozish fazilati yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. “Safarning she‘riy va nasriy asarlaridagi o‘ynoqlik, jonlilik, qalb to‘lqini uning publitsistik chiqishlarida ham ko‘zga tashlanadi... Shu o‘rinda Safarning bolalar adabiyotimizda eng oqsoq janr hisoblangan publitsistikani jonlantirishga qo‘shayotgan hissasiga tan berib o‘tgim keladi”¹, - deb yozgan edi bolalar adibi Hakim Nazir. Chindan ham, adibning publitsistik yo‘nalishdagi ijodi, ayniqsa, mustaqillik yillarida rivoj topib, yuqori bosqichga ko‘tarildi. “U istiqlol tufayli mamlakatimizda bolalikka munosabat tubdan qayta qurilayotganligiga teranroq razm sola boshladi. Bu hol uning ijodida bolalik muammolaridan bahs etuvchi publitsistika faollashuviga yo‘l ochdi. Natijada uning davr ruhiyatiga sug‘orilgan qator dolzarb publitsistik maqola va ocherklari yuzaga keldiki, bular XX asrning so‘nggi choragidagi o‘zbek bolalar publitsistikasi qiyofasini belgilashda ahamiyat kasb etadi”². “Yaylov kezganlar” (1999), “Bolalarsiz bu dunyo – g‘arib”, “Bolalik nimadan boshlanadi”, “Bolaning boshini silang”, “Qanotlaning, ukalar”, “Aldagani bola yaxshimi”, “Qiblagoh”, “Mustaqillik madhiyasi” singari o‘nlab asarlarida uni hozirjavob, qalbi qaynoq publitsist sifatida ko‘rish mumkin.

¹ Nazir Hakim. Savobli ijod // O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati, 1998, 1-may.

² Bolajonlik saodati. – Toshkent: Muharrir, 2011. – B.31-32

S.Barnoyevning publitsistik asarlari shu darajada ko‘p va rang-barangki, ularni batafsil tadqiq etish kelgusidagi alohida ilmiy vazifalardan hisoblanadi. Binobarin, adib publitsistik asarlarini xarakteri va janriga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Publitsistik maqolalar: Bu silsilada “Dovonlardan oshayotgan yurt”, “Bolalik nimadan boshlanadi”, “Buyuklari uyg‘ongan diyori”, “Vatanning ko‘z qarog‘larisiz”, “Ishonch daraxtining gullari” kabi qirqdan ortiq maqolalari mavjud.

2. Publitsistik hikoyalar: Bu silsilada “Xotira tiriklik chashmasi”, “Yashash maktabi”, “Qiblagohlar”, “Qanotlaning, ukalar”, “Registonda yongan olov” va boshqa qator asarlarni eslatish mumkin. “Urush bolalari”, “O‘tmish haqida hikoyalar”, “Umrlar jangi” singari publitsistik hikoyalar alohida turkumni tashkil etadi.

3. Ocherklar: “Bag‘ri butun olim”, “Akademik o‘qigan maktab” va boshqalar.

4. Publitsistik esse yoki badihalar: “Mening oshnam Toyloqov”, “Bobolar yurti”, “Bolalikning armonlari”, “Bolalik suvrati” va boshqalar.

Yozuvchining publitsistik yo‘nalishga mansub yana bir qancha asarlari borki, ularning ko‘pchiligi o‘rganilmagan.

“Erkin kompozitsiya, birinchi navbatda, assotsiativ tafakkur usulini taqozo qiladi. Hayotni badiiy publitsistik aks ettirishda keng, chuqur va boy imkoniyatlarga ega bo‘lgan assotsiativ usulning rang-barang ko‘rinishlaridan har bir yozuvchi erkin foydalana oladi. Biroq assotsiativ kompozitsiya shakli har bir yozuvchi publitsistikasida uning individual ijodiy uslubiga muvofiq o‘ziga xos yo‘sinda namoyon bo‘ladi. Masalan, ba’zi adiblar publitsistikasida **lirik-romantik** assotsiativ kompozitsiya shakli ko‘proq qo‘llansa, ikkinchi bir adib ijodida **tarixiy yoki adabiy assotsiativ** xususiyat muhim o‘rin tutadi. Boshqa bir yozuvchi esa, **hayotiy-maishiy faktlar assotsiatsiyasiga** ko‘proq e’tibor qiladi”³.

S.Barnoyev publitsistikasida ikkinchi – tarixiy yoki adabiy assotsiativ xususiyat bosh yo‘nalishni tashkil etadi. Tilga olingan har ikkala asarda ham xotiralarni keltirish, tarixga sayohat (ekskurs) qilish yo‘lidan boriladi. “Yo‘lda qolgan qo‘shiqlar” asarida muallif xotiralari ichida kichik voqealar bayonini berish va bu orqali ilgari surilayotgan ijtimoiy fikr-mulohazalarning o‘quvchilar ongiga tezroq yetib borishi ko‘zda tutiladi.

Publitsistik asarlarda muallif ishtiroki ikki xilda bo‘ladi: birinchisida – muallif voqealarga bevosita aralashib ketadi, ikkinchisida – tashqaridan turib bilvosita munosabat bildiriladi. S.Barnoyevning publitsistik asarlarida ko‘pincha ikkinchi holat ko‘zga tashlanadi. Bundan tashqari, ayniqsa, hikoyaga yaqin asarlarida, lavhalarida boshqa personajlar ham qatnashadi. “Yo‘lda qolgan qo‘shiqlar” asarida

³ Tog‘ayev O. Publitsistika janrlari.– Toshkent: Yosh gvardiya.1990.– B.98.

sho‘ro davrida mevazorlar, tutzorlarning kesib tashlanishini eslarkan, Toshev kabi salla desa kallani olib keladigan, Hamro aka singari vijdonli, yurtparvar insonlarning aniq qiyofasi bir-ikki detalni keltirish orqali yorqin chiziladi.

S.Barnoyevning bu yo‘nalishdagi asarlariga xos yana bir xususiyat shuki, ularda publitsistik obrazlilik ehtirosli emotsionallik bilan qo‘shilib ketadi. Ya’ni tasvirlanayotgan voqeaga yoki biror ijtimoiy muammoga ehtirosli samimiy munosabat uning publitsistikasiga lirik ruh bag‘ishlaydi. Shuning uchun uning publitsistik lavhalari, o‘ylari lirik falsafiy pafos bilan sug‘orilgandir.

S.Barnoyev publitsistikasiga xos yana bir muhim fazilat – milliy ruhga boyligida ko‘rinadi. Publitsist asarlarini o‘qib, birinchidan, bolalar o‘z o‘tmishlaridan boxabar bo‘lishadi. Ikkinchidan, boy dalillar orqali ularning ongida milliy boyluklarimizga nisbatan g‘urur, iftixor hislari uyg‘otiladi. “Yo‘lda qolgan qo‘shiqar”da adib millat iftixor bilan eslaydigan detallarga ko‘p e’tibor qaratadi. Masalan, tut turlari: balx tuti, shotut, marvartak, xashaki tut; yoki milliy o‘yinlar: chillak, bekinmachoq, lanka, varrak uchirishlar; to‘qayzorda o‘sadigan yulg‘un, chig‘il kabi daraxtlar; daryo yoqalaridagi tulki, bo‘ri, chiyabo‘ri, to‘ng‘iz kabi hayvonlarning nomlari uchraydiki, ular xalqimizning boy turmush tarzidan dalolat bersa, bir tomondan, bolalarda milliy faxrlanish tuyg‘ularini o‘stiradi. Shuning uchun adib publitsistikasi yosh avlodda o‘zligiga hurmat hissini tarbiyalashdek sharaflil vazifani bajarishda hali ko‘p xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘zbek bolalar publitsistikasi taraqqiyotida S.Barnoyevning alohida o‘rni bor, istiqlol yillarida uning bu sohadagi faoliyati yangi pog‘onaga ko‘tarildi. Uning publitsistik asarlarida milliy qadriyatlarimiz, tarixga munosabat, o‘zaro hurmat, zamonaviy dolzarb muammolar bola dunyoqarashiga mos holda ifodalanadiki, bu yosh avlodni sergaklikka chorlashi, mustaqilligimizni asrashga undashi bilan yillar o‘tsa-da, ohorini yo‘qotmaydigan asarlardan bo‘lib qoladi.

O‘zbek bolalar adabiyotida S.Barnoyevchalik serqirra ijodkorni topish qiyin: shoir, nosir, publitsist, jamoat arbobi, ma’rifatparvar adib adabiyotshunos, tanqidchi sifatida ham adabiy jarayonga aralashib, faollik ko‘rsatdi. U ustozlari, hamkasblari haqida xotiralar, ilmiy tanqidiy maqolalar ham yozdi. Masalan, Oybek (“O‘zbekning Oybegi”), G‘afur G‘ulom (“Yorqin xotira”, G‘afur G‘ulomning 80 yilligiga, “Qarzdorlik”, “O‘zbekning mard shoiri”, shoirning 90 yilligiga), Toshpo‘lat Hamid (“Jonkuyar shoir, murabbiy edi”, “Nur eshigin ochganlar”), Adham Rahmat (“Bir og‘iz shirin so‘z”, A.Rahmatning 89 yilligiga), hamkasblari Shamsi Odil (“O‘limlardan sakragan lochin”), Hamza Imonberdiyev (“Hamzaning ertaklari”), Tursunboy Adashboyev (“Do‘stga do‘st so‘zi”) kabilar haqida o‘nlab xotira maqolalari shular jumlasidandir.

Bolalar adabiyotining sergak kuzatuvchisi sifatida yangi nashr etilayotgan asarlarga munosabat bildirib, o‘nlab taqrizlar, obzor maqolalar yozdi. Chunonchi, T.Adashboyevning “Oqbura to‘lqinlari” kitobiga bag‘ishlangan “Bolalikning beg‘ubor olami” deb nomlangan taqrizi, “She‘r – samimiylik belgisi” obzor maqolasi shular silsilasidandir. “Do‘rmon hangomalari” turkumi esa S.Barnoyevning hajviy iste’dodini namoyish etuvchi asarlari sirasiga kiradiki, ularni tadqiq etish navbatdagi vazifalardan biridir.